

**OILADA FARZAND TARBIYASIGA PSIXOLOGIK
YONDASHUVLAR,TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Mavlonova Hayotxon Ravshanovna

Farg'ona shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: *Farzand – oilani mustahkamlovchi oliy mo'jiza. Ota-onaning bir-birlariga samimiy munosabati, o'zaro hurmati farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilgani kabi ularning nojo'ya hattiharakatlari, betakallufligi oiladagi o'zaro munosabatlarning buzilishiga, farzandlar tarbiyasida bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keladi. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan nusxa oladilar.*

Kalit so'zlar: *Farzand, ota, ona, oila, jamiyat, ruhiy holat, psixik jarayonlar, muloqot, depressiv xulq*

KIRISH

Kuzatishlarimizga qaraganda, oilalarda ota-ona hamda farzand o'rtasidagi munosabatlarda ham o'ziga xos samarasiz usullardan foydalanilayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, ota-onalar ba'zan farzandlariga o'ta darajada mehr ko'rsatadi, keragidan ortiq mehr qo'yishadi. Istagan narsasini muhayyo qilishga intilishadi. Bir qarashda, hammasi to'g'ri, bolasiga g'amxo'rlik qilish ota-onaning burchi, deyish mumkin. Ming afsuski, bunday munosabat bolalarda salbiy xislatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Binobarin, manmanlik, birovlarini mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy xislatlar ana shunday “mehribonlik” mevasidir. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalar muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydi. Qolaversa, o'z tengqurlari bilan kelisha olmasliklari, do'stlari doirasining torligi sabab ko'pincha yakkalanib qolishadi. Bu esa ayrim noqis kimsalarga qo'l kelishi, ularni turli oqimlarga, jinoyat ko'chasiga kirib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. (E'tibor bersangiz, giyohvandlar, turli oqimlar ko'p hollarda o'ziga to'q oilalarning farzandlarini nishonga olishadi).

Bugungi kunda o'zbek oilasida ota-onalar tomonidan tarbiyada qaysi usullar qo'llanilishi, oilada ota-onalarning mas'uliyati qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazildi. "Kelajakda qurilajak oilangiz o'z oilangizga o'xshashini istarmidingiz?" mazmundagi savolga farzandlarning qariyb 35 foizi o'z oilasidagi muhitdan qoniqmasligini bayon qilishgan. Xo'sh, bu nimadan dalolat? O'sha oilalarning notinchligidan, farzandlarning o'z ota-onalari xulq-atvoridan qoniqmasligidan dalolat emasmi?!

Tadqiqot mobaynida olingan natija va xulosalarga binoan bolada xulq og'ishi, turli yot g'oyalarga berilishi, boshqalar ta'siriga tushish, ota-onasidan uzoqlashish, o'zboshimchalik, daydilik kabi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari yuzaga kelishi oiladagi ota-ona munosabatlarining ta'siri kuzatildi.

Ushbu raqamlar shundan dalolat beradiki, ota-onalarning farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishlarida muammolar mavjud. Ota-onalarning o'zlari farzandlariga oila muhitida hamisha odob-ahloq qoidalariga rioya etishni muntazam ravishda uqtirib, o'rgatib borishlari, buning uchun ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish zarurligi ko'rindi.

Ulug'lardan biri «Nobop farzand ortiqcha barmoqqa o'xshaydi, kesib tashlasang og'ritadi. Kesmasang, har joyda izza qilib, yuzingni yerga qaratadi» - degan ekan. Yoshlarni tarbiyalash bobida qaerda, qachon, qanday xatoliklarga yo'l qo'ymaslikni bilish ota-onalar, kattalarning zimmasidadir. "Ota-ona - san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir", deyilgan. Shunday ekan, farzandning har jihatdan komil inson bo'lib yetishishida ota-onalarning tarbiya masalasi azaliy ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning va bolalarining kasal bo'lishlariga asosiy sabablaridan biri ota-onalarda tibbiy bilimlarning yetishmasligi ekan. Demak, qaysi ota-ona o'zim sog' bo'lay, bolalarim sog' bo'lishsin, desa, tibbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Kim boy bo'lay, desa, iqtisodiy bilimlarga, xususiy mulkning mustahkam himoyasini o'ylasa, huquqiy bilimlarga ega bo'lishi kerak bo'lib chiqadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tibbiy bilimsizlik – salomatlikka tahdid ekan, pedagogik bilimsizlik – barkamol avlod tarbiyasiga tahdid, desak to'g'ri bo'ladi.

Kim bolasini Vataniga sodiq, fidokor, baxtli inson etib tarbiyalamoqchi bo'lsa, pedagogik bilimlarga ega bo'lishi kerak. Albatta ta'biri joyiz bo'lsa aytishim lozimki “ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”, deyilmoqda. Bu yerda ikkita majburiyat bor. Biri – boqish, ikkinchisi – tarbiyalash. Bizda bola boqish muammosi, ya'ni bolamga nima yedirib-ichirsam ekan, degan muammo yo'q. Buning tasdig'iga mamlakatimizda har ikkinchi oilada mashina turgani; AQShning Kaliforniya universiteti olimlari o'tkazgan tadqiqotlarda jahonning eng baxtli 158 ta mamlakati orasida O'zbekistonimizning 44-o'ringa chiqqanining o'zi javob.

Farzand – oilani mustahkamlovchi oliy mo'jiza. Ota-onaning bir-birlariga samimiy munosabati, o'zaro hurmati farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilgani kabi ularning nojo'ya hattiharakatlari, betakallufligi oiladagi o'zaro munosabatlarning buzilishiga, farzandlar tarbiyasida bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keladi. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan nusxa oladilar. “Oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh” bo'lib o'sadi.

Ma'lumki, tarbiyaning aniq qoidasi yo'q. Ba'zi ota-onalar muloyimlik, og'ir-bosiqlik bilan, kimdir qattiqqo'llik, tahdid bilan bolani to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. Nazarimizda otaonaning vazifasi bolaga faqat nima qilish lozimligini anglatish emas, nima yaxshiyu, nima yomonligini bildirishni ham taqozo qiladi. Farzandi nimaga qiziqadi, qanday muammolari bor, do'stlari kimlar? Bu haqda har-bir ota-ona bilishi lozim. Har kuni farzandi bilan suhbatlashish uchun vaqt ajratishi, ular bilan sirdosh bo'lishi va hamisha shaxsiy namuna ko'rsatishi kerak. Buning uchun ota-onalar o'z zimmalarida mas'uliyatni his etishlari talab etiladi.

XULOSA

Oilada ayrim ota-onalar farzandlari biron bir yomon ish qilib qo'ysa, uni qattiq jazolash, taqiqlash va uydan chiqarmay qo'yish usullari orqali tarbiyalamoqchi bo'ladi. Farzandi o'zlariga yoqadigan ishga qo'l ursa, maqtovg'a erk berib mukofotlaydi. O'zlari qo'llayotgan usullarni qay biri to'g'ri, qay biri

noto'g'ri ekanligi haqida esa o'ylab ham ko'rmaydilar. O'zlaricha tarbiyada qattiqqo'llik muhim deb hisoblashadi. Natijada o'zlari bilmagan holda bolalarining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ota-ona eng avvalo oilada bolalarni tarbiyalash to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ular tarbiya to'g'risidagi pedagogik va psixologik kitoblarni, gazeta va jurnallar, teledasturlar bilan tanishib borishlari lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz -T.: "O'zbekiston", 2017, 329-bet.
2. Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisdagi tabrik so'zi, 1997 yil 5 dekabr.- Karimov I. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida: T.6 – T.: "O'zbekiston", 1998 – 400 b.[2]
3. Хайдаров Мамат, Рахмонов Азамат Изучение школьников в целях профориентации профессиональный отбор(подбор) учащихся "Педагогика ва психологияда инновациялар" Тошкент -2020й.
4. A.R.Raxmonov "Boshlang'ich ta'lim jarayoniga innovatsiyon yondashuv" Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari "O'qituvchi innovatsiyon faoliyatining asosiy xususiyatlari" 66b